



EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISHDA MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING AMALIY SAMARADORLIGI: TADQIQOT VA NATIJALAR

PhD Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
ORCID: 0000-0003-2428-4266
e.xojiyev@tsue.uz

Annotatsiya. 2021-2024-yillarda davlat tomonidan eksportchi korxonalarini qo'llab-quvvatlash uchun 330 mlrd. so'mdan 560 mlrd. so'mgacha moliyaviy mablag'lar ajratilgan. Eksport salohiyatini oshirish maqsadida moliyaviy yordam ko'rsatish natijasida 14 mlrd. AQSH dollariga teng mahalliy mahsulotlar xorijiy davlatlar bozorlariga yetkazib berilgan. Maqolada O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan korxonalarga davlat tomonidan ko'rsatiladigan moliyaviy qo'llab-quvvatlashning eksport salohiyatiga ta'siri baholangan va ajratilayotgan mablag'larning samaradorligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: eksport, mahalliy mahsulotlar, xorijiy bozorlar, moliyaviy yordam, eksport va moliyaviy yordamning o'zaro bog'liqligi.

ПРАКТИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ФИНАНСОВОЙ ПОДДЕРЖКИ В РАЗВИТИИ ЭКСПОРТНОГО ПОТЕНЦИАЛА: ИССЛЕДОВАНИЯ И РЕЗУЛЬТАТЫ

PhD Хожиев Элшод Ёқуб угли
Ташкентский государственный
экономический университет

Аннотация. В 2021-2024 годах со стороны государство на поддержку предприятий-экспортеров выделены финансовые ресурсы от 330 миллиардов сумов до 560 миллиардов сумов. В результате оказания финансовой поддержки в целях повышения экспортного потенциала на рынки зарубежных стран была поставлена местная продукция на сумму 14 миллиардов долларов США. В статье оценено влияние финансовой поддержки, оказываемой государством предприятиям, работающим в Республике Узбекистан, на экспортный потенциал и проанализирована эффективность выделяемых средств.

Ключевые слова: экспорт, отечественная продукция, внешние рынки, финансовая поддержка, взаимозависимость экспорта и финансовой поддержки.

PRACTICAL EFFECTIVENESS OF FINANCIAL SUPPORT IN ENHANCING EXPORT CAPACITY: THE RESEARCH AND RESULTS

PhD Khojiev Elshod Yoqub ugli
Tashkent State University of Economics

Abstract. From 2021 to 2024, the government allocated financial resources ranging from 330 billion to 560 billion UZS to support exporting enterprises. As a result of financial assistance aimed at increasing export potential, local products worth 14 billion USD were delivered to foreign markets. The article evaluates the impact of government-provided financial support on the export potential of enterprises operating in the Republic of Uzbekistan and analyzes the efficiency of the allocated funds.

Keywords: export, domestic products, foreign markets, financial support, correlation of export and financial support.

Kirish.

Jahon bozorida raqobatning kuchayishi va iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida O'zbekiston eksport salohiyatini oshirish zarurati dolzarb muammolardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Eksport hajmini kengaytirish, yangi bozorlarni egallash va milliy mahsulotlarni xalqaro miqyosda raqobatbardosh qilish uchun davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Global iqtisodiy muhitda o'zgaruvchan sharoitlar, xalqaro bozordagi raqobat va iqtisodiy inqirozlar sharoitida O'zbekistonning eksport salohiyatini mustahkamlash uchun moliyaviy yondashuvlarni takomillashtirish va ularning samaradorligini doimiy monitoring qilib borish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. O'zbekistonda eksport faoliyatini moliyalashtirishning mavjud mexanizmlari va ularning samaradorligini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqish talab etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev raisligida "2024-yilda investitsiya, eksport va xalqaro hamkorlik sohalarida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalar" yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishda eksportni kreditlashga 200 million dollar resurs berilganligi, 2024-yilda eksportchilarni qo'llab-quvvatlashga 800 milliard so'm yo'naltirilishi ta'kidlandi. Shu bilan bir qatorda, Eksportni rag'batlantirish agentligi tarmoq va hudud rahbarlari bilan birgalikda eksportchi korxonalar uchun yo'naltirilgan mablag'lardan samarali foydalanishini ta'minlay olmayotgani ko'rsatib o'tildi.

Hozirgi kunda eksport faoliyatini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash dasturlariga ajratilgan xarajatlar va ularning eksport daromadlariga ta'siri o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar davlat tomonidan sarflangan xarajatlarning eksportni qanchalik darajada oshirishga xizmat qilganligi haqidagi savolga aniq javob bermayapti. Ushbu bog'liqlikni o'rganish amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega, chunki u davlat tomonidan tashqi iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash uchun sarflangan mablag'larning samaradorligi va maqsadga muvofiqligini baholash imkonini beradi. Shu sababli, davlat tomonidan eksportni rag'batlantirish uchun amalga oshirilgan xarajatlarning samaradorligini baholash dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

O'zbekistonda eksportchi korxonalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlariga ko'rsatiladigan moliyaviy yordam 2020 yil 31 dekabrda Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Eksportni rag'batlantirish agentligi tomonidan eksport qiluvchi tashkilotlarga moliyaviy yordam ko'rsatish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" gi 826-sonli qaroriga muvofiq amalga oshirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Hukumat Komissiyasining 2024-yil 11-may kunidagi "Tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilariga moliyaviy yordam ko'rsatishning vaqtinchalik tartibi to'g'risida"gi Nizomi qabul qilinishi natijasida 2024-yilning 1-iyulidan boshlab "Savdoni rivojlantirish kompaniyasi" AJ tomonidan eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash choralari tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi asosida taqdim etiladi. Bunday choralar tarkibida – moliyaviy yordam ko'rsatish tadbirlari ham mavjud.

Ko'pgina tadqiqotchilar korxonalar darajasida olib borilgan tadqiqotlarga asoslanib, eksportni qo'llab-quvvatlash dasturlariga ajratilgan xarajatlar eksport savdolarini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydilar. Masalan, Rosson (1985) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, eksportni qo'llab-quvvatlash dasturlari AQShda olma va tamaki mahsulotlari savdosining oshishiga yordam bergan. Uning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, eksport salohiyatini oshirish maqsadida sarflangan har bir dollar eksportdan 30-60 dollar daromad keltirgan.

Coughlin va Cartwright kabi olimlar ham davlat tomonidan eksportni qo'llab-quvvatlash xarajatlarning samaradorligini baholagan ilk tadqiqotchilardan bo'lgan. Ular regressiya

tahlilidan foydalangan holda, eksportni qo'llab-quvvatlash uchun ajratilgan har bir 1 000 dollar 432 000 dollarlik eksport savdolarini oshirishga olib kelishini aniqlaganlar. Armah va Epperson o'z tadqiqotlarida AQShda kontsentratsiyalangan apelsin sharbatini qo'llab-quvvatlash samaradorligini baholagan va eksportni rivojlantirish dasturlari uchun ajratilgan har bir dollar 7 dollargacha eksport daromadini keltirishini ko'rsatgan. So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar ham eksportni qo'llab-quvvatlash dasturlariga ajratilgan xarajatlarni eksport faoliyatining muvaffaqiyatlilik darajasini baholashning asosiy ko'rsatkichi sifatida ko'rib chiqishga undaydi. Masalan, Jack Houston AQShda bug'doy eksportini rivojlantirish dasturlarining Tinch okeani mintaqasi, Yaqin Sharq va Meksikaga eksport hajmlariga ta'sirini baholagan. U o'z tadqiqotida eksportni qo'llab-quvvatlashga ajratilgan har bir dollar Tinch okeani mintaqasida 1,49 dollar, Yaqin Sharqda 0,42 dollar va Meksikada 2,01 dollarlik eksport daromadini oshirishini aniqlagan.

Shu bilan birga, Kaiser Kaliforniya uzum eksportini rivojlantirish dasturlarining o'rtacha samaradorligini baholagan va har bir dollar xarajat 3,49 dollarlik eksport daromadini oshirishga olib kelganini ko'rsatgan. Xalqaro savdo markazi tadqiqotchilari esa savdoni rivojlantirish tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan eksportni qo'llab-quvvatlash xarajatlarning o'rtacha samaradorligini baholagan. Ularning hisob-kitoblariga ko'ra, eksportni qo'llab-quvvatlashga sarflangan xarajatlarning 1 foizlik o'sishi eksport savdolarining 0,074 foizga o'sishiga olib kelishi asoslangan.

Xojiyev (2023) tomonidan "O'rik mahsulotlari eksportini oshirishda marketing tadqiqotlaridan foydalanishni takomillashtirish" mavzusidagi iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasi uchun yozilgan tadqiqot ishida 43 ta eksport qiluvchi korxonalariga taqdimot va reklama kompaniyalarini o'tkazish bo'yicha 2,4 mlrd. so'mlik moliyaviy yordam ko'rsatilganligi natijasida 27 mln. AQSh dollarlik mahsulotlar tashqi bozorlarga yetkazib berilganligi tahlil qilingan.

Urumov (2017) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, AQShda davlat eksportni qo'llab-quvvatlash uchun 1 million dollar xarajat qilganida, eksport hajmi o'rtacha 2 million dollarga oshadi. Hindistonda esa, davlat xarajatlarning har bir million dollari eksport hajmini o'rtacha 10 million dollarga oshiradi. Bu ko'rsatkichlar davlatning eksportni qo'llab-quvvatlash bo'yicha sa'y-harakatlari va eksportning iqtisodiy o'sishga ta'sirini yaqqol tasdiqlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotimiz davomida O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan korxonalarni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash samaradorligini tahlil qilishga o'tamiz. Modelni tahlil qilishdan oldin, model uchun ma'lumotlarni yig'ish jarayoni haqida to'xtalib o'tamiz. Modelda qo'llaniladigan o'zgaruvchan qiymatlar ikki toifani aks ettiruvchi ikki qismdan iborat. Birinchi qism 2021 yildan — 2025 yilgacha O'zbekistonda eksportni rag'batlantirish xarajatlari to'g'risida ma'lumotlarni yig'ish bilan bog'liq. Ikkinchi qism O'zbekistonning xuddi shu davrdagi umumiy eksport hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash bilan bog'liq. Vazifaning birinchi qismi uchun zarur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi huzuridagi "Savdoni rivojlantirish kompaniyasi" aksiyadorlik jamiyati tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlari, ikkinchi qism – eksportning umumiy hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasi tomonidan shakllantirilgan ma'lumotlar bazalari asosida qurildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

So'nggi to'rt yil davomida O'zbekistonning turli hududlarida eksportni qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat tomonidan ajratilgan moliyaviy yordam miqdori va uning natijasidagi eksport hajmi o'zgarib borgan (1-jadval). 2021-yildan 2024-yilgacha bo'lgan davrda moliyaviy qo'llab-quvvatlashning umumiy hajmi sezilarli darajada oshgan bo'lsa-da, bu eksport

ko'rsatkichlariga har doim ham proporsional ta'sir ko'rsatmagan. 2021-yilda jami ajratilgan moliyaviy yordam 330,5 mlrd so'm bo'lib, eksport hajmi 1,09 mlrd AQSh dollarini tashkil qilgan. 2022-yilda moliyaviy yordam 522,7 mlrd so'mgacha oshgan va eksport hajmi 7,8 mlrd AQSh dollariga yetgan. 2023-yilda ajratilgan mablag' yana oshgan bo'lsa-da, eksport hajmi 3,1 mlrd AQSh dollariga pasaygan. 2024-yilda esa ajratilgan moliyaviy yordam kamaygan va eksport hajmi 1,6 mlrd AQSh dollariga tushgan.

Tahlilni amalga oshirish uchun OLS - Ordinary Least Squares modeli qo'llaniladi, u quyidagi formulada ifodalanadi:

$$Y_i = \beta_0 + \beta_1 \cdot X_{1i} + \beta_2 \cdot X_{2i} + \dots + X_{ki} + \varepsilon_i,$$

Bu yerda:

- Y_i - bog'liq o'zgaruvchining i -kuzatuvdagi qiymati.
- X_{1i} : 1-mustaqil o'zgaruvchining i -kuzatuvdagi qiymati.
- β_0 : kesish nuqtasi (intercept), ya'ni barcha mustaqil o'zgaruvchilar nolga teng bo'lganda Y -ning qiymati.
- $\beta_1, \beta_2, \dots, \beta_k$: mustaqil o'zgaruvchilarning regressiya koeffitsientlari (ular Y -ga ta'sirini ko'rsatadi).
- ε_i : xato (error) termi, ya'ni model bilan izohlanmagan tasodifiy komponent.

Model parametrlarini baholash uchun eng kichik kvadratlar usuli qo'llaniladi. Ko'rib chiqilayotgan mamlakat tomonidan eksportni rag'batlantirishga ajratilayotgan moliyaviy yordamlarining har biri uchta regressiya tenglamalari yordamida baholandi. Birinchi tenglamada 2021-yilda eksportni qo'llab-quvvatlash yoki rag'batlantirish xarajatlarining miqdorini eksport savdosi yoki tushumiga ta'sir qilish holati ko'rib chiqildi. Ikkinchi tenglama orqali 2022-yilda eksportni qo'llab-quvvatlash yoki rag'batlantirish xarajatlari miqdorining eksport tushumiga ta'sir qilish holati tahlil qilindi. Uchinchi tenglama yordamida 2023-yilda amalga oshirilgan eksportni qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq xarajatlarni moliyalashtirish miqdorining mamlakat eksport tushumiga ta'sir qilish holati aniqlangan bo'lsa, keying tenglama orqali 2024-yildagi moliyaviy yordamning eksport salohiyati bilan bog'liqlik holati baholandi.

2-jadval

Eksportni qo'llab-quvvatlash uchun sarflangan xarajat va uning natijasida amalga oshirilgan eksport hajmi tahlili

T/r	Yillar	Eksportni qo'llab-quvvatlash uchun sarflangan xarajat (mln. so'm) - X_t	Amalga oshirilgan eksport hajmi - Y_1 (ming AQSh doll.)
1	2021	330 545,60	1 090 911,5
2	2022	522 799,59	7 857 033,6
3	2023	556 096,2	3 157 745,2
4	2024*	376 770,2	1 668 662,7

Manba: O'zbekiston Respublikasi Investitsiya, sanoat va savdo vazirligi hamda O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tahlil qilingan.

Izoh: * – 2024-yil ma'lumotlari 2024-yilning 1-dekabr holatiga olingan.

Izoh: X_t – Eksportni qo'llab-quvvatlash uchun sarflangan (t yil davomida) xarajat;

$\pm 0,3$ gacha – bog'liqlik mavjud emas;

$\pm 0,3 - \pm 0,5$ – kuchsiz bog'liqlik mavjud;

$\pm 0,5 - \pm 0,7$ – o'rta bog'liqlik mavjud;





$\pm 0,7 - \pm 1,0$ – kuchli bog'liqlik mavjud.

1-jadval

Mahalliy mahsulotlar eksport qiluvchi korxonalariga ko'rsatilgan moliyaviy yordam va uning natijasida amalga oshirilgan eksport hajmi tahlili

T/r	Hudud nomi	Moliyaviy yordam (mln.so'm)	Eksport hajmi (ming AQSh doll.)	Moliyaviy yordam (mln.so'm)	Eksport hajmi (ming AQSh doll.)	Moliyaviy yordam (mln.so'm)	Eksport hajmi (ming AQSh doll.)	Moliyaviy yordam (mln.so'm)	Eksport hajmi (ming AQSh doll.)
		2021-yil		2022-yil		2023-yil		2024-yil	
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 934,47	19 111,77	3 823,97	23 848,03	5 565,33	34 227,80	6 462,4	28 306,1
2	Andijon viloyati	6 904,73	48 717,91	24 771,33	227 865,88	21 100,52	192 596,60	9 371,1	130 205,8
3	Buxoro viloyati	3 774,14	21 216,28	6 061,75	91 062,45	7 677,07	61 044,16	2 745,0	19 364,6
4	Jizzax viloyati	5 391,86	22 335,32	11 637,11	81 731,58	13 159,35	82 019,78	3 649,5	13 996,8
5	Qashqadaryo viloyati	3 836,28	9 479,03	11 975,39	67 455,82	10 952,43	93 113,62	4 679,4	21 009,3
6	Navoiy viloyati	2 897,15	41 299,02	6 327,41	40 326,17	9 132,92	75 737,53	5 588,8	50 071,7
7	Namangan viloyati	13 583,79	86 783,08	34 162,91	227 982,05	48 068,26	178 938,17	29 065,7	133 591,7
8	Samarqand viloyati	23 602,97	93 321,04	55 003,67	215 416,34	78 752,49	331 594,66	65 091,4	205 494,1
9	Sirdaryo viloyati	7 076,69	14 817,09	11 071,27	48 809,09	9 890,29	82 355,29	6 976,9	45 493,6
10	Surxondaryo viloyati	4 906,54	9 096,62	9 072,84	46 805,08	15 834,24	58 316,07	15 307,3	65 032,3
11	Toshkent viloyati	46 313,25	170 982,34	75 211,09	485 457,46	88 246,00	428 283,26	67 527,8	267 439,1
12	Farg'ona viloyati	50 379,98	238 973,29	107 330,62	615 820,94	98 119,12	336 030,38	69 161,0	253 080,6
13	Xorazm viloyati	8 419,56	21 240,73	16 196,29	51 017,28	22 375,49	212 027,12	11 752,1	23 121,9
14	Toshkent shahri	150 524,19	293 538,03	105 251,58	760 383,71	127 222,74	955 773,75	79 392,0	412 455,1
				44 902,36					
	JAMI:	330 545,60	1 090 911,5	522 799,59	7 857 033,6	556 096,2	3 157 745,2	376 770,2	1 668 662,7

Manba: O'zbekiston Respublikasi Investitsiya, sanoat va savdo vazirligi hamda O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tahlil qilingan.



1-rasm. Eksportchi korxonalariga davlat tomonidan ajratilgan moliyaviy yordamlarning eksport salohiyatiga ta'sirini baholash tahlili

Moliyaviy yordamning eksport hajmiga ta'sirini o'rganish uchun chiziqli regressiya tahlilini o'tkazdik. Regression tahlil natijalari ko'rib chiqamiz:

3-jadval

Regressiya tenglamasi ko'rsatkichlari

Year	Coefficient (B1)	Intercept (B0)	R ²	p-value	Standard Error (B1)
2021	2.085343	28686.46	0.812397	0.00001073835	0.289283
2022	6.284440	-1381.03	0.943258	0.000000007719	0.444951
2023	5.373472	9563.61	0.812847	0.00001058244	0.744319
2024	3.935619	13274.13	0.890724	0.00000040352	0.397937

Yillar kesimida ma'lumotlar tahlil qilinib, har bir yil uchun davlat tomonidan eksportni rag'batlantirish uchun taqdim etilgan moliyaviy yordamning eksport hajmiga ta'sirini o'rganish uchun har bir yil bo'yicha alohida regressiya tahlilini o'tkazildi.

Yillar kesimida moliyaviy yordamning eksport hajmiga ta'sirini baholash natijalariga ko'ra, 2021-yilda korxonalariga ajratilgan har 1 million so'mlik moliyaviy yordam eksport hajmini o'rtacha 2.08 ming AQSh dollariga oshirgan. R-kvadrat 0,812 (81,2 %) moliyaviy yordam eksport hajmidagi o'zgarishlarning 81,2 % ini tashkil etgan.

2022-yilda har 1 million so'mlik moliyaviy yordam eksport hajmini o'rtacha 6,28 ming AQSh dollariga oshirganini va bu ko'rsatkich tahlil qilinayotgan yillar ichidagi eng yuqori bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Mazkur yildagi R-kvadrat 0,812 (81,2 %) moliyaviy yordam eksport hajmidagi o'zgarishlarning 81,2 % ini tashkil etgan.

2023-yilda ajratilgan har 1 million so'mlik moliyaviy kompensatsiya eksport hajmini o'rtacha 5,37 ming AQSh dollariga oshirgan.

Har 1 million so'mlik moliyaviy yordam natijasida 2024-yildagi eksport hajmi o'rtacha 3,94 ming AQSh dollarga oshgan. Har yilgi tahlil uchun p-qiymatlar juda kichik bo'lib, bu regressiya modellari statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini bildiradi. Koeffitsiyentning ishonchli bahosi uchun standart xatoliklardagi past qiymatlar modelning aniqlik darajasini ko'rsatadi. Tahlil natijasida moliyaviy yordamning eksport hajmiga ijobiy ta'siri har yili sezilarli bo'lgan deb ayta olamiz.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, eksportni rag'batlantirish maqsadida davlat tomonidan ajratilgan moliyaviy mablag'lar umumiy eksport hajmiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. 2021–2024 yillar davomida moliyaviy qo'llab-quvvatlash dasturlari eksport hajmini oshirishga yordam bergan bo'lsa-da, yillar davomida ajratilgan mablag'larning samaradorligi turlicha bo'lgan. Ayrim yillarda ajratilgan moliyaviy resurslar eksport hajmining sezilarli oshishiga xizmat qilgan bo'lsa, ayrim hollarda ushbu mablag'larning yetarlicha natija bermagani kuzatilgan. Bu esa, ajratilayotgan mablag'larning samaradorligini oshirish va maqsadli yo'naltirish bo'yicha tahlil va optimallashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari eksportni moliyaviy qo'llab-quvvatlash dasturlarining iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Ayniqsa, moliyaviy yordam miqdori va eksport hajmi o'rtasidagi bog'liqlik regressiya tahlili orqali baholanganda, bu bog'liqlikning yildan-yilga o'zgarishi aniqlangan. Shuningdek, xorijiy tajriba va ilmiy tadqiqotlar eksportni rag'batlantirish bo'yicha samarali strategiyalarni ishlab chiqish muhimligini ko'rsatmoqda.

Tahlillar natijasida davlat tomonidan ajratilgan moliyaviy yordam eksport hajmining o'sishiga yordam bergan bo'lsa-da, bu o'sish doimiy va barqaror bo'lmaganligi aniqlandi. Ba'zi hududlarda eksport hajmi moliyaviy yordam miqdorining oshishiga bevosita bog'liq bo'lsa, ba'zi hollarda boshqa omillar (bozor sharoitlari, talab va taklif o'zgarishlari, logistik to'siqlar

hamda boshqalar) eksport hajmiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkin. Shu bois, eksportni qo'llab-quvvatlash dasturlari bilan bir qatorda, ishlab chiqarish va logistika infratuzilmasini rivojlantirish, yangi bozorlarni topish va eksport diversifikatsiyasini oshirish kabi chora-tadbirlarni ham amalga oshirish zarur hisoblanadi.

Adabiyotlar /Лумепамыра/Reference:

Nizom (2024) O'zbekiston Respublikasi Hukumat Komissiyasining 2024-yil 11-maydagi "Tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilariga moliyaviy yordam ko'rsatishning vaqtinchalik tartibi to'g'risida"gi Nizomi.

Qaror (2020) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Eksportni rag'batlantirish agentligi tomonidan eksport qiluvchi tashkilotlarga moliyaviy yordam ko'rsatish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" gi 826-son qarori.

Rosson III, S.P., Hammig, M.D., Jones, J.W. (1985). *Foreign Market Promotion Programs: An Analysis of Promotion Response for Apples, Poultry, and Tobacco*. *Agribusiness*, 2(1), 33-42.

Yig'ilish (2024) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev raisligida "2024-yilda investitsiya, eksport va xalqaro hamkorlik sohalarida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalar" yuzasidan o'tkazilgan yig'ilish. 2024-yil 18-yanvar.

Урумов Т.Р. (2017) Эффективность государственной финансовой поддержки экспортной деятельности малых и средних предприятий. *Актуальные проблемы экономики и права*. Т. 11, № 1.

Хожиев Э.Ё. (2023) "Ўрик маҳсулотлари экспортини оширишда маркетинг тадқиқотларидан фойдаланишни такомиллаштириш" мавзусидаги иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси. Тошкент. 70-б.